

Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida, Jizzax viloyatida jami 6 566,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2024- yilning mos davriga nisbatan 119,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajmi, mlrd so'm*	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	6 566,6	119,1
Jizzax shahri	2 229,6	112,0
Arnasoy	66,7	112,3
Baxmal	158,6	115,4
G'allaorol	234,4	112,9
Sharof Rashidov	715,7	110,5
Do'stlik	168,0	153,3
Zomin	556,6	125,0
Zarbdor	127,1	116,8
Mirzacho'l	69,9	120,6
Zafarobod	80,3	134,3
Paxtakor	238,4	145,2
Forish	233,3	139,7
Yangiobod	25,3	141,1

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish hajmi 4 999,0 mlrd so'mni (ulushni 76,1 %), o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 164,4 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 1 145,1 mlrd so'mni (17,4 %), o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 186,3 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 422,5 mlrd so'mni (6,5 %), o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 172,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 865,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 166,9% ga o'sib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,5 % ga ko'paydi va 13,2 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,8 % ga to'g'ri kelib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 924,9 mlrd so'mni tashkil qildi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga o'sdi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,0 % ni yoki 1 776,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 24,4 % ga o'sdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	865,6	3924,9	1776,1	166,9	110,0	124,4
Jizzax shahri	319,8	1767,5	142,2	2,3 m	101,5	130,3
Arnasoy	8,9	37,4	20,4	144,4	117,0	95,7
Baxmal	12,1	63,4	83,2	142,1	101,6	125,1
G'allaorol	11,5	134,1	88,8	110,8	104,4	129,5
Sharof Rashidov	43,7	576,9	95,1	185,3	106,6	114,9
Do'stlik	14,5	88,1	65,4	2,0 m	128,9	192,2
Zomin	160,1	308,6	87,9	106,8	138,0	122,6
Zarbdor	3,0	66,0	58,2	49,8	116,9	125,5
Mirzacho'l	5,1	36,2	28,7	97,9	158,6	95,3
Zafarobod	26,3	24,0	30,1	2,8 m	148,0	86,9
Paxtakor	41,0	148,5	48,9	9,5 m	121,2	130,7
Forish	13,0	177,0	43,3	167,8	135,4	151,9
Yangiobod	3,3	12,4	9,6	80,6	28,2 m	70,8

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Paxtakor (2024-yilning mos davriga nisbatan 9,5 m), Zafarobod tumanlari (2,8m), Jizzax shahri (2,3 m) va Do'stlik (2,0 m) tumanida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiobod (2024-yilning mos davriga nisbatan 28,2 m), Mirzacho'l (158,6 %) va Do'stlik (128,9 %) tumanlarida kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul: Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	Ijrochi: K. Butunbayeva 72 221-51-02	Manzil: Kimyogar maxallasi to'qimachilar ko'chasi
--	---	--